



FARG'ONA DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH  
MINTAQAVIY MARKAZI



**“JAMIYATDA SOG‘LOM TURMUSH  
TARZINI TASHKIL ETISH  
ASOSLARI”  
MODULI BO‘YICHA  
O‘QUV –USLUBIY MAJMUA**

S.Sidikov- pedagogika fanlari  
nomzodi, dosent



**2024**

Modulning ishchi dasturi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25 avgustdagи 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan oliy ta’lim muassasalari rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishlari o‘quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

.

**Tuzuvchi:** **S.Sidikov-** pedagogika fanlari nomzodi, dosent  
**Taqrizchilar:** **N.Mamadjonov -** pedagogika fanlari doktori, professor

*Ishchi o‘quv dasturi FarDU Ilmiy Kengashining qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan (2023 yil 27 dekabrdagi 5- sonli bayonnomasi).*

## **MUNDARIJA**

I. ISHCHI DASTUR .....	5
II. MODULDA FOYDALANILGAN INTERFAOL TA'LIM	
METODLARI .....	14
III NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI .....	24
IV AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI .....	57
V. GLOSSARIY .....	97
VI ADABIYOTLAR RO'YXATI .....	100

# I. ISHCHI DASTUR

## I. ISHCHI DASTUR

### Kirish

Mazkur ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagи “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli, 2020 yil 24 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 14 avgustdagи “O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzurida Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta’minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 658-sonli, 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Ishchi o‘quv dasturida qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilari sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish, jismoniy tarbiya va jismoniy salomatlik bo‘yicha Xitoy tajribasi, yuklamaning koordinatsion murakkabligi, pulsometriya o‘tkazish uslubiyoti bo‘yicha ham bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar.

## **Modulning maqsadi va vazifalari**

O‘quv modulining maqsadi – “Jamiyatda sog‘lom turmush tarzini tashkil etish asoslari” fanini o‘qitishdan maqsad – magistrlarda bo’lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchisiga kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarga ega qilish. Uzluksiz ta`lim tizimining barcha bosqichlariga bevosita aloqador bo’lgan uslubiy jihatlardagi yangilik va muammolarni o’rganish hamda tahlil qilish. “Sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyati” fanining va boshqa o’zaro a`loqador fanlarni o‘qitish metodikasiga doir o‘quv materiallar bilan uyg`unlikda o’rgatish. Magistrlarni fan mutaxassisni sifatida shakllantirishda milliylik, tarixiylik, raqobatbardoshlik, zamonaviylik, izchillik, motivatsiya, amaliylik hamda novatorlik kabi sifatlarni ko’zda tutgan holda ta`lim-tarbiya berish. Salomatlikni saqlash, birinchi tibbiy yordam ko’rsatishni bilish, ish qobiliyatini oshirish, gigienik qoidalarga rioya qilishga, jismoniy madaniyat va sport bilan shug’ullanuvchilar uchun tibbiy nazorat xususiyatlari va ahamiyati, jismoniy rivojlanish darajasini aniqlashning samarador shakllari va uslublari, sog‘lomlashtirish va tiklash yo’llari, shakllari, uslublari, shikastlanishni ogohlantirish va oldini olish uslublari, sportchilarning ishchanligini oshirish yo’llari, shakllari, uslublariga oid bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirish.

### **O‘quv modulining vazifalari:**

- “**Jamiyatda sog‘lom turmush tarzini tashkil etish asoslari**” moduliining asosiy maqsadiga erishishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish
- kasbiy ta`limning vazifalarini asoslash, uning ta`limiy va tarbiyaviy ahamiyatini ochib berish;
  - talabalarda o‘quv materialini mazmunini asoslash bo‘yicha bilim va ko’nikmalarni shakllantirish;
  - kasbiy ta`lim jarayonini tashkil etishning shakl va metodlarini asoslash.
  - bo’lajak mutaxassislarda kasbiy bilimlarni shakllantirishning pedagogik va axborot texnologiyasini asoslash;
  - sog‘lom turmush tarsi jismoniy madanyati taraqqiyot tendentsiyasi (jihat), uning

bugungi kundagi holati, izlanish metodlari, yangilanish sabablari, shuningdek o'quv adabiyotlar bilan tanishtirish;

### **Modul yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:**

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining "Jamiyatda sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari" o'quv moduli bo'yicha tinglovchilar qyuidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

#### **Tinglovchi:**

- jismoniy yuklamani me`yorlashni;
- jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tish joyi va sharoitini baholash mezonini;
- shug'ullanuvchilarni shaxsiy gigienasi va sog'lom turmush tarzini tashkil qilishni;
- jismoniy madaniyat va sport bilan shug'ullanuvchilar uchun tibbiy nazorat xususiyatlari va ahamiyatini;
- jismoniy rivojlanish darajasini aniqlashning samarador shakllari va uslublarini;
- talabalar, o'quvchilarni sog'lomlashtirish va tiklash yo'llari, shakllari, uslublari;
- shikastlanishni ogohlantirish va oldini olish uslublarini;
- sport ishchanligini oshirish yo'llari, shakllari, uslublarini;
- sport tibbiyotining ilmiy-tadqiqot uslublarini ***bilishi*** kerak.

#### **Tinglovchi:**

- talabalar o'quv faoliyatini faollashtirish uslublari, zamonaviy pedagogik texnologiyalari;
  - yuqori sport natijalariga erishish va ishchanlikni oshirish, salomatlikni -- mustahkamlash uchun tabiatning tabiiy kuchlari va gigienik omillar;
  - sport turlari bilan shug'ullanish qoidalari va gigienik me`yorlari;
- 
- jismoniy madaniyat va sport bilan shug'ullanish joyini baholashda gigienik tadqiqot uslublari;
  - asosiy tushunchalar, atamalar va mutaxassislarni tayyorlashda tizimli yondoshish;
  - jismoniy madaniyat va sport bilan shug'ullanuvchilarning tibbiy nazorat usullari;

- o'quvchilar, talabalarni sog'lomlashtirish hamda tiklanishida jismoniy madaniyat va sportni o'rni;
- mashg'ulotlarni ratsional tarkibini ishlab chiqish va rejalashtirish;
- shikastlanishni ogohlantirish va oldini olish uslublari;
- jismoniy madaniyat va sport bilan shug'ullanish ishlashini tahlil etish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim***;
- inshoatlar va sport zalning gigienik holatini baholash uchun turli apparatlar va anjomlardan foydalanish;
- an`anaviy chiniqtirish uslublaridan foydalanish;
- jismoniy madaniyat va sport bilan shug'ullanuvchilarining salomatlik holatini va jismoniy rivojlanishini baholash;
- sinov tajriba tadqiqotni o'tkazish, ularning natijalarini tahlil qilish va statistik tahlilini ishlab chiqish;
- o'quvchilarni va talabalarni jismoniy rivojlanishi hamda tayyorgarligini baholashni aniqlashda samarador shakllari va uslublarini qo'llash; sport ishchanligini oshirish ***ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi lozim***.

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati” fani o'z mohiyatiga ko'ra mutaxassislik bo'yicha magistrlar tayyorlash o'quv rejasida ko'rsatilgan fanlar bilan uzviy bog'langan bo'lib, u magistrni kelajakdagi ta'lim jarayoniga tayyorlashga xizmat qiladi. Mazkur fan “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi”, «Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat», “Jismoniy madaniyat metodikasi”, “Jismoniy madaniyatning pedagogik va psixologik asoslari”, “Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi”, “Jismoniy tarbiya va

sportda menejdment hamda marketing” kabi fanlar bilan o'zaro bog'langan holda uzviy ketma-ketlikda olib boriladi.

### **Fanning ta'limdagi o'rni**

Jismoniy madaniyat ta'lim tizimida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” dan kelib chiqadigan vazifalar, fan, texnika va texnologik taraqqiyotining bugungi

darajasi bilan bo'lajak Jismoniy madaniyat sohasidagi pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi sifatini takomillashtirish, soha bo'yicha uzlucksiz ta'lim tizimi bo'g`inlarini malakali kadrlar bilan ta'minlash, o'quv-tarbiyaviy jarayon sifatini xalqaro andozalar darajasiga ko'tarish, talimning yangi printsiplari uslublarini, ilg`or pedagogik va zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy qilish, yoshlarni milliy tiklanish mafkurasi asosida tarbiyalash va umuminsoniy qadriyatlarni anglatish, Vatanga muhabbat, mustaqillik g`oyasiga sadoqat ruhida o'qitish va tarbiyalash, zamonaviy xorijiy o'quv markazlarida keyingi talim uchun sharoit yaratish, xorijiy mutaxassislar bilan raqobatdosh yuqori malakali jismoniy madaniyat bo'yicha kadrlar tayyorlash.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi "Sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati" fanini o'qitish jarayonida magistrlar faoliyatini tashkil etish bo'yicha ishning jamoaviy, guruhli, kichik guruhli va individual shakllaridan foydalilanadi. Mashg`ulotlarni olib borishda ma`ruza, hikoya, suhbat, tushuntirish, ko'rsatish, mashq qilish, amaliy ish bajarish, muammoli va mustaqil ish bajarish kabi uslublar qo'llaniladi. Interfaol uslublardan "Klaster", "Echim daraxti", "BBB", "Blits uyin", "Aqliy xujum", "Muammoli vaziyat", "Toifalar jadvali", "Insert", "Pinbord", "Venna diagrammasi" shuningdek "Keys-stadi" kabilarni qo'llash tavsiya etiladi.

## MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

T/r	<b>Modul mavzulari</b>	<b>Auditoriya o‘quv yuklamasi</b>		
		<b>Jami</b>	<b>Nazariy</b>	<b>Amaliy mashg‘ulot</b>
1.	Salomatlik tushunchasi uning mazmuni. Sog’lom turmush tarzi tushunchasining mohiyati, ahamiyatini ochib berish.	2	2	
2.	OTMlarda talabalarning sog’lom turmush tarzi. Sog’lom turmush tarzi xususiyatlarining tarkibiy qismlari.	2	2	
3.	Sog’lom turmush tarzining asosiy omillari,tog’ri va sifatli ovqatlanish, hamda ovqatlanish jarayonida gигиеник talablarga qat’iy rivoja qilish.	4	2	2
4.	Ish va dam olish rejimi.	4	2	2
5.	Optimal harakat faolligi.	2		2
6.	Zararli odatlarni oldini olish.	2		2
7.	Sog’lom turmush tarzini shaklantirishda atrof muhitning sofligi va uni muhofaza qilishga erishish.	2		2
<b>JAMI</b>		<b>18</b>	<b>8</b>	<b>10</b>

## **NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-MAVZU: SALOMATLIK TUSHUNCHASI UNING MAZMUNI.SOG'LOM TURMUSH TARZI TUSHUNCHASINING MOHIYATI, AHAMIYATINI OCHIB BERISH (2-SOAT) REJA**

1. Salomatlik tushunchasi uning mazmuni.
2. Tibbiy-ijtimoiy tadqiqotlardagi salomatlik darajaları.

### **2-MAVZU. OTMLARDA TALABALARNING SOG'LOM TURMUSH TARZI. SOG'LOM TURMUSH TARZI XUSUSIYATLARINING TARKIBIY QISMLARI REJA**

1. Otmlarda talabalarning sog'lom turmush tarzi.
2. Sog'lom turmush tarzi va uning tarkibiy qismlari.

### **3-MAVZU: SOG'LOM TURMUSH TARZINING ASOSIY OMILLARI, TOG'RI VA SIFATLI OVQATLANISH, HAMDA OVQATLANISH JARAYONIDA GIGIENIK TALABLARGA QAT'IY RIOYA QILISH REJA**

1. Salomatlik holatini baholashning tezkor usuli
2. Inson salomatligi va kasalligi ijtimoiy muhit

### **4-MAVZU: ISH VA DAM OLISH REJIMI. (2-SOAT) REJA**

1. Doimiy (bir smenali).
2. Oddiylashtirilmagan.
3. Smenali ish.
4. Moslashuvchan jadval.
5. Aylanish rejimi.
6. Parchalangan ish kuni.

**AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI**  
**1-AMALIY MASHG'ULOT**  
**MAVZU: OPTIMAL HARAKAT FAOLLIGI. (2-soat)**

Salomatlikni mustahkamlashning fiziologik mexanizmlarini bilish va ulardan oqilona foydalanish, turmush tarzini shunga mos holda tashkil etish sog'lom turmush tarzi tamoyillarini o'zlashtirish uchun qulay sharoit yaratadi, inson umrini uzaytirib, faol mehnat qilishini ta'minlaydi.

**2-AMALIY MASHGULOT: OPTIMAL HARAKAT FAOLLIGI.**  
**(2-SOAT)**

Turmush tarzi deganda, jamiyatning inson bilan tabiiy hamda ijtimoiy muhit o'rtasida barqaror va uzoqni ko'zlab o'rnatilgan munosabatlar tizimidan iborat axloqiy va moddiy qadriyatlari tushuniladi.

**3- AMALIY MASHG'ULOT**  
**MAVZU: ZARARLI ODATLARNI OLDINI OLISH. (2-soat)**

Giyohvandlik sifatida chekish. Bog'liqlik mexanizmlari. Profilaktika choralari.

**4- AMALIY MASHG'ULOT**  
**MAVZU: SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLANTIRISHDA**  
**ATROF MUHITNING SOFLIGI VA UNI MUHOFAZA**  
**QILISHGA ERISHISH. (2-SOAT)**

Biosferadagi barcha jarayonlar o'zaro bog'liqdir. Insoniyat biosferaning ozgina qismidir va inson organik hayotning faqat bir turi - Homo sapiens (aqlli odam). Aql odamni hayvonot dunyosidan ajratib qo'ydi va unga ulkan kuch berdi. Asrlar davomida inson tabiiy muhitga moslashishga emas, balki uni o'z hayoti uchun qulay qilishga intilgan. Endi biz har qanday inson faoliyati atrof-muhitga ta'sir qilishini va biosferaning yomonlashishi barcha tirik mavjudotlar, shu jumladan odamlar uchun xavfli ekanligini angladik.

**5-AMALIY MASHG'ULOT**  
**MAVZU: Sog'lom turmush tarzini shaklantirishda atrof**  
**muhitning sofligi va uni muhofaza qilishga erishish. (2-soat)**

Sog'lom va barkamol shaxs g'oyasi. Sog'lom turmush tarzi falsafasi. Insonning hayot yo'li

## **II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI**

## II.MODULDA FOYDALANILGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

### “SWOT-tahlil” metodi.

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



**Namuna:** Nanotexnologiyaning fizikaviy asoslari va amaliyotda qo'llanishi SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Nanotexnologiyaning fizikaviy asoslari va amaliyotda qo'llanishi modulini kuchli tomonlari	Nanofizika va nanotexnologiy fanlarining hamkorligi
W	Nanotexnologiyaning fizikaviy asoslari va amaliyotda qo'llanishi modulini kuchsiz tomonlari	Nanomateriallar yaratishning noyob xom-ashyolar va yangi texnologiya-larga ehtiyojining yuqori ekanligi
O	Nanotexnologiyaning fizikaviy asoslari va amaliyotda qo'llanishi modulini imkoniyatlari (ichki)	Innovatsion ishlab chiqarishning keng qo'llanishi va samaradorligi
T	To'siqlar (tashqi)	Nanomateriallar ishlab chiqarishda qo'shimcha xarajatlar paydo bo'lishi

## Xulosalash (Rezyume, Veyer) metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### Методни амалга ошириш тартиби:



тренер-ўқитувчи иштирокчиларни 5-6 кишидан иборат кичик групкаларга ажратади;



тренинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир групга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари туширилган тарқатма материалларни



ҳар бир груп ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил қилиб, ўз муроҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён қиласди;



навбатдаги босқичда барча групкалар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлр билан тўлдирилади мавзу

### Namuna:

Materiallar qiyosiy tahlili					
Metall		Keramika		Polimer	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Mustahkam , qattiq, elekt r-issiqlikni yaxshi o'tkazadi	Og'ir, yuqori haroratda qayta ishlanadi, zanglaydi	Yuqori haroratlarga chidamli, xom-ashyo zahirasi katta	Mo'rt, og'ir, nafis	Yengil, past haroratlarda qayta ishla-nadi, zahira-si katta	Yuqori haroratlar va kuchli mexanik ta'sirlarga chidamsiz
<b>Xulosa:</b> Barcha materiallar ham o'zining afzalligi va kamchiligi bilan bir biridan jiddiy farqlanadi. Lekin, ularning kompleks tarzda amaliy qo'llanishi kamchiliklari bartaraf etilishiga va afzalliklarini yanada oshirishga imkon beradi.					

### “Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «study» – o'r ganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'r ganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'r ganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/Qanaqa (How), Nima-natija (What).

## “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

<b>Ish bosqichlari</b>	<b>Faoliyat shakli va mazmuni</b>
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishslash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishslash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishslash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

**Keys.** Kompozit material shakllantirish uchun komponentlar tanlandi. Ularni suyuq fazaga o'tkazib aralashtirishda suyuqlanish harorati harxilgi bo'yicha muammo kelib chiqdi. Kompozit olish uchun yangicha ilmiy yondashish talab etilmoqda.

### **Кейсни бажариш босқчилари ва топшириклар:**

- Кейсдаги муаммони келтириб чиқарган асосий сабабларни белгиланг(индивидуал ва кичик гурӯҳда).
- Мобил иловани ишга тушириш учун бажариладагина ишлар кетма-кетлигини белгиланг (жуфтликлардаги иш).

### **“AQLIY HUJUM” METODI**

“**Aqliy hujum**” metodi muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo`llaniladigan metod hisoblanadi. Bu metod o`quvchilarni muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o`z tasavvurlari va g`oyalardan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko`nikma va malakalarini hosil qilishga rag`batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan dars jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug`iladi.

#### **Ushbu metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:**

Talabalarning o`zlarini erkin xis etishlariga sharoit yaratib berish;

G`oyalarni yozib borish uchun yozuv taxtasi yoki varaqlarni tayyorlab qo`yish;

Muammo (yoki mavzu)ni aniqlash;

Mashg`ulot jarayonida amal qilinishi lozim bo`lgan shartlarni belgilash;

Bildirilayotgan g`oyalarni ularning mualiflari tomonidan soslanishiga erishish va ularni yozib olish;

Qog`oz varaqlari g`oya bilan to`lgandan so`ng ularni yozuv taxtasiga osib qo`yish;

Bildirilgan fikrlarni yangi g`oyalalar bilan boyitish asosida ularni quvvatlash;

Boshqalar tomonidan bildirilgan fikrlar ustidan kulishga, kinoyali sharxlarning bildirilishiga yo`l qo`ymaslik;

Yangi g`oyalarni bildirish davom etayotgan ekan, muammoning yagona to`g`ri yechimini e`lon qilishga shoshilmaslik.

“Aqliy hujum” metodlaridan fizikadagi har bir bobni takrorlashda

foydalaniш samarali natija beradi. Shuningdek, yangi mavzular bayonidan so`ng shu mavzuni mustahkamlash uchun ham ushbu metodni qo`llash tavsiya

### **“SCORE” interfaol uslubi**

(umumiy o`rta maktab, O`MKHTM, OTM talabalar va talabalari hamda malaka  
oshirish va qayta kurslari tinlovchilari uchun )

**Uslub maqsadi:** talabalarga o`zgalar fikrini hurmat qilgan holda dalillash, ishontirish, asoslash; murosaga kelish va izlash qobilyatlarini rivojlantirish; muammoli vaziyatlarni oldindan ko`ra bilish, ularni hal qilish yo`llarini izlab topish, munozara olib borish mahorati, o`z fikrini boshqalarga o`tkaza olish, ta`sir eta olishga o`rgatish va bahslashish madaniyatini shakllantirish.

**Uslubdan kutiladigan natija:** talabalar mashg`ulot davomida nostandart vaziyatlarda o`zini va jamoani boshqara olish, muammoli vaziyatlarni tushuna bilish va ularning yechimini aniqlashda va o`z uslublarini topa bilish, o`z fikrlarini boshqalarga o`ztkaza olish, ta`sir eta olish usullariga hamda bahslashish madaniyatiga o`rganadilar.

**Mashg`ulotni o`tkazish tartibi:** mashg`ulot belgilangan vaqtida talabalarning xonaga (mashg`ulot o`tkaziladigan joyga) kirib kelishidan boshlanadi. Talabalar xonaga kirib kelishar ekan, mashg`ulotdan oldin o`qituvchi tomonidan eshikning yonidagi stol ustiga tayyorlab qo`yilgan, ingliz tilida yoziligan xarflardan (S,C,O,R,E) bittasini olib, stol atrofiga joylashadilar (stollarga ham shu harflar qo`yilgan, har bir stol atrofida talabalar soni bir xil bo`lishi hisobga olinadi). Talabalar joylashib olishgach, o`qituvchi mashg`ulotni boshlaydi.

O`qituvchi mashg`ulotni o`tkazish tartibi bilan talabalarni tanishtirishdan boshlaydi. O`qituvchi shu kunning dolzarb muammolaridan kelib chiqqan holda, mashg`ulotga talabalar bilan birgalikda mavzu yoki muammo tanlaydi va guruhlardan ularning har biri tanlangan mavzu yoki muammoni bir tomonini o`rganishlarini (stollarga shu guruh tomonidan umumiy muammoning qaysi jihatlari haqida so`z yuritishlari kerakligini ko`rsatuvchi belgi yoki yozuvli material qo`yiladi), so`ngra, munozara yuritib, o`zlarining fikrlarini yozma

(og`zaki) bayon qilishlari kerakligini tushuntiradi. Vazifa uchun vaqt belgilaydi. Guruhlarining ishlari tayyor bo`lgach, ular birin-ketin o`rtaga chiqib, ishlarini taqdimot qiladilar. Taqdimot avval muammoning –bedgisi (S), keyin uning –sababi (S), so`ngra –natijasi (O), manbai (R) va samarasi (Ye) tartibda olib boriladi. Boshqa guruh a`zolari taqdimot materiallari umumlashtirilib, xulosa qilinadi. O`qituvchi talabalar bilan birgalikda guruhlar faoliyatiga baho beradi, mashg`ulotga yakun yasaydi, talabalarning mashg`ulot haqidagi fkirlarini anilaydi.

### **“FIKRIY HUJUM” METODI**

Ta’limning “Fikriy hujum” metodi o`quvchilarning dars jarayonida faolliklarini ta’minlash ularni bir xil standart tarzida fikrlashdan ozod qilish, erkin fikrlashga rag`batlantirish, muayyan mavzu yuzasidan turli- tuman g`oyalarni to`plash, ijodiy yondoshishga o`rnatish uchun xizmat qiladi.

“Fikriy hujum” metodining asosiy tamoili va sharti har bir o`quvchi tomonidan o`rtaga tashlanadigan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo taqiqlash, har qanday luqma va hazil mutoibalarni rag`bantlantirishlan iborat. Bundan ko`zlangan maqsad o`quvchilarning dars jarayonidagi erkin ishtirokini ta’minlashdir.

Ta’lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o`qituvchilarning pedagogik mahorati taffakur ko`laming kengligiga bog`liq bo`ladi.

“Fikriy hujum” metodidan foydalanish chog`ida o`quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Bu metoddan fizikaning ma’lum bobini takrorlash darslarida, laboratoriya ishi yakunida, ekskursiya darslarida samarali foydalanish mumkin.

### **“6 X 6” METODI**

“6 x 6” metodi yordamida bir vaqtning o`zida 26 nafar o`quvchining muayyan faoliyatga jalg etish orqali ma’lum topshiriq yoki malakan ni xal etish, shuningdek, guruxlarning har bir a’zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan darsda har birida 6 nafardan

ishtirokchi bo`lgan 6 ta guruh o`qituvchi tomonidan o`rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi.Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach,o`qituvchi 6 ta guruhni qaytadan tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo`ladi.Yangi shakllangan guruh a'zolari o`z jamoadoshlariga avvalgi guruhitomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

“6 x 6”metodining afzallik jihatlari quyidagilardan iborat:

- guruhlarning har bir a'zosini faol bo`lishga undaydi;
  - ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta'minlaydi;
  - guruhning boshqa a'zolarining fikrlarini tinglay olish ko`nikmalarini hosil qilish;
- ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o`z fikrini himoya qilishga o`rgatadi.

Eng muhimi, har bir o`quvchi qisqa vaqt ( 15 – 20 minut ) davomida ham munozara qatnashchisi, ham ma'ruzachi sifatida faoliyat ko`rsatadi.

Ushbu metodni 4,5,7, 8 nafar o`quvchidan iborat bo`lgan bir necha guruhlarda ham qo`llash mumkin.


### **“XULOSALAR QABUL QILISH TEXNOLOGIYASI”**

#### **METODI**

Ushbu metod birmuncha murakkab mavzularni o`zlashtirish,ma'lum muammolarni har tomonlama, puxta tahlil qilish asosidaular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to`g`risini topishga yo`naltirilgan texnik yonashuvdir.

“Xulosalar qabul qilish tenologiyasi” metodi, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan xulosalar mohiyatini yana bir bor tahlil qilish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi. Guruh talabalari ishtirokida qo`llaniladigan bu metod bir necha o`n nafar talabalarning bilimlari darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi. Ta'lim jarayonida mazkur metodning qo`llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilona xulosaga kelishda

talabalar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini mufassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi. Mashg`ulot jarayonida talabalar quyidagi chizma asosida tuzilgan jadvalni to`ldiradilar.



## XULOSA

“Xulosalar qabul qilish texnologiyasi” metodi quyidagi shartlar asosida qo`llaniladi.

1.O`qituvchi mashg`ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalarni yozish uchun plakatlarni tayyorlaydi.

2.O`qituvchi talabalarni 4 yoki 6 nafar talabalardan iborat guruhlarga ajratadi. Muammoning hal etilishi, bu borada eng maqbul xulosaniningqabul qilishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.

3.Xulosani qabul qilish jarayonida guruhlarning har bir a`zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarningmaqbullik hamda nomaqbullik darajalari batafsil muhokama qilinadi.

4.Munozara uchun ajratigan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruh a`zolari o`z guruhining xulosasi borasida axborot beradilar. Agarda barcha guruhlар tomonidan muammo yuzasidan bir xil xulosaga keltingan bo`lsa, o`qituvchi buning sababini izohlaydi.

### **III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI**

### **III. NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

#### **1-MAVZU: SALOMATLIK TUSHUNCHASI UNING MAZMUNI.SOG'LOM TURMUSH TARZI TUSHUNCHASINING MOHIYATI, AHAMIYATINI OCHIB BERISH. (2-SOAT)**

1. Salomatlik tushunchasi uning mazmuni.
- 2.Tibbiy-ijtimoiy tadqiqotlardagi salomatlik darajaları

#### **Tayanch iboralar. Ensiklopediya, jismoniy rivojlanish, jismoniy madaniyat, sport, salomatlik.**

Salomatlik (sog'lik) — har qanday tirik organizmning o'zi va uning barcha a'zolari o'z vazifalarini to'liq bajara oladigan holati: nuqsonlar, kasalliklarning yo'qligi (salomatlik tushunchasining batafsil ta'rifi quyida keltirilgan). Salomatlikni o'rGANADIGAN fanlarga dietologiya, farmakologiya, biologiya, epidemiologiya, psixologiya (salomatlik psixologiyasi, rivojlanish psixologiyasi, eksperimental va klinik psixologiya, ijtimoiy (sotsial) psixologiya), psixiatriya, pediatriya, tibbiy sotsiologiya va tibbiy antropologiya, psixoxigina, defektologiya va boshqalar kiradi.

JSST nizomiga ko'ra, «salomatlik — nafaqat kasallik va jismoniy nuqsonlarning yo'qligi, balki to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holatidir». Biroq, bu ta'rifni populyatsion va individual miqyosda salomatlikni baholash uchun ishlatib bo'lmaydi. JSST ma'lumotlariga ko'ra, mediko-sanitar statistikada salomatlik tushunchasi ostida insonda kasalliklar va buzilishlar aniqlanmasligi, populyatsion miqyosda esa — o'lim, kasallanish va nogironlik ko'rsatkichining pasayishi jarayoni tushuniladi.

P. I. Kalyu «Salomatlik tushunchasining asosiy xususiyatlari va sog'liqni saqlashni qayta tuzishning ayrim masalalari: batafsil ma'lumot» nomli ishida dunyoning turli mamlakatlarida, turli davrlarda va turli ilmiy me'yorlar tomonidan tuzilgan salomatlikning 79 ta'rifini ko'rib chiqdi. Ta'riflar orasida quyidagilar uchraydi:  
Sog'lik — organizmning barcha darajalarda normal faoliyat ko'rsatishi,

shaxsiy yashab qolish va nasl qoldirishga imkon beradigan biologik jarayonlarning normal kechishi.

Organizm va uning funktsiyalarining atrof muhit bilan dinamik muvozanati. Ijtimoiy faoliyatda va jamoat foydali ishlarida qatnashish, asosiy ijtimoiy funktsiyalarni to'liq bajarish qobiliyati.

Kasalliklar, kasal holatlari va o'zgarishlar bo'lmasligi.

Organimzning doimo o'zgarib turadigan atrof-muhit sharoitlariga moslashish qobiliyati.

Kalyuga ko'ra, barcha mumkin bo'lgan salomatlikning barcha tavsiflari quyidagi tushunchalarga tenglashtirilishi mumkin:

**Tibbiy model** — tibbiy belgilar va xususiyatlarni o'z ichiga olgan ta'riflar uchun; salomatlik kasallik va uning alomatlari yo'qligi sifatida.

**Biotibbiy model** — organik buzilishlar va nosog'lomlikning sub'yektiv hissiyotlari yo'qligi.

**Bioijtimoiy (biosotsial) model** — ijtimoiy belgilar birinchi o'ringa qo'yiladigan tibbiy va ijtimoiy belgilar birgalikda qaralishi qo'shiladi.

**Qiymat-ijtimoiy model** — qiymat sifatida insonning salomatligi qaraladi; JSSTning ta'rifi aynan shu modelga to'g'ri keladi.

## **TIBBIY-IJTIMOIY TADQIQOTLARDAGI SALOMATLIK DARAJALARI**

**Individual salomatlik** — bu alohida insonning sog'lig'i.

**Guruh salomatligi** — ijtimoiy va etnik guruhlarning salomatligi.

**Mintaqaviy (regional) salomatlik** — ma'muriy hududlar aholisining salomatligi.

**Jamoat salomatligi** — populyatsiya salomatligi, umuman aholining sog'ligi; «kasalliklarni oldini olish, hayot davomiyligini uzaytirish va tashkiliy sa'y-harakatlar orqali sog'lomlashtirish, jamiyat, tashkilotni o'z fikriga binoan tanlash (davlat yoki xususiy, jamoat yoki individual) ilmi yoki san'ati» deya ta'riflanadi.

Jamiyat sog'lig'ining profilaktikasi usullari — ta'lim dasturlarini joriy etish, siyosatni, xizmat ko'rsatishni ishlab chiqish va ilmiy tadqiqotlar o'tkazishdir.

Emlash tushunchasi jamoat salomatligi tushunchasi bilan bog'liq. Davlat sog'liqni

saqlash dasturlarining ulkan ijobiy ta'siri keng e'tirof etilgan. XX asrdagi sog'liqni saqlash siyosati natijasida qisman, chaqaloqlar va bolalar o'limining pasayishi kuzatildi va dunyodagi ko'plab odamlar hayot davomiyligi barqaror o'sdi. Misol uchun, amerikaliklarning o'rtacha umr ko'rish darajasi 1900 yildan boshlab 30 yilgacha, butun dunyoda olti yilga ortganligi qayd etildi.

### **SALOMATLIK DARJASINI ANIQLASH, UNING KO'RSATKICHLARI**

Inson salomatligi — sifat ko'rsatkichi bo'lib, u miqdoriy parametrlar: **antropometrik** (bo'y, vazn, ko'krak qafasi hajmi, a'zolar va to'qimalarning geometrik shakli); **jismoniy** (yurak urish tezligi, arterial qon bosimi, tana harorati); **biokimyoviy** (tanadagi kimyoviy elementlar, eritrotsitlar, leykotsitlar, gormonlar va boshqalar miqdori); **biologik** (ichak florasingning tarkibi, virusli va infektsion kasalliklar mavjudligi) va boshqa biomarkerlardan tashkil topadi.

Inson organizmi holati uchun «norma» tushunchasi mavjud bo'lib, bunda parametr qiymatlari tibbiyot fani va amaliyoti bilan belgilanadigan diapazonga to'g'ri kelishi inobatga olinadi. Qiymatning berilgan diapazonдан og'ishi, salomatlik yomonlashuvining belgisi va dalili bo'lishi mumkin. Tashqi tomondan, sog'likni yo'qotish tananing tarkibiy tuzilmalari va funktsiyalarida o'lchanadigan buzilishlarda, uning moslashuvchanligi o'zgarishida ifodalanadi.

JSST nuqtai nazaridan, odamlar sog'lig'i ijtimoiy sifat hisoblanadi va shu munosabat bilan aholi salomatligini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlar tavsiya etiladi:

Yalpi ichki mahsulotni sog'liqni saqlashga sarflash;

Birlamchi tibbiy yordamning mavjudligi;

Aholining immunizatsiya darajasi;

Homilador ayollarni malakali xodimlar tomonidan tekshirilishi darajasi;

Bolalarning oziqlanish holati;

Bolalar o'limi darajasi;

O'rtacha umr ko'rish davomiyligi;

Aholining gigienik savodxonligi.

## O'RTACHA KATTALAR UCHUN AYRIM BIOLOGIK KO'RSATKICHLAR NORMASI

Arterial qon bosimi 140/90 mm sim.ust dan yuqori emas.

Tana harorati — 35,5 dan 37,4 °C gacha

Sog'lik nuqtai nazaridan arterial qon bosimining ikki darajasini aniqlash mumkin:

**Optimal:** SAB 120 dan, DAB 80 mm sim.ust dan kam emas.

**Normal:** SAB 120-129, DAB 84 mm sim.ust.

SAB — sistolik arterial bosim. DAB — diastolik arterial bosim.

## JAMOAT SALOMATLIGI MEZONLARI

**Tibbiy-demografik** — tug'ilish darajasi, o'lim darajasi, aholining tabiiy o'sishi, chaqaloqlarning o'lim darajasi, muddatidan oldin tug'ilgan chaqaloqlar soni, kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish darajasi.

**Kasallanish** — umumiy, infektsion, vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qitshtan bilan, tibbiy ko'rikarga ko'ra, asosiy noepidemik kasalliklar, gospitalizatsiyalangan.

Nogironlik ko'rsatkichlari.

Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari.

Barcha mezonlar dinamikada baholanishi kerak. Aholi salomatligini baholashning muhim mezonlari salomatlik ko'rsatkichi (indeksi), ya'ni tekshirilish vaqtida (masalan, yil davomida) kasal bo'limganlarning ulushi hisoblanishi kerak.

## SALOMATLIK OMILLARI

Salomatlik psixologiyasida sog'liqqa ta'sir qiluvchi uchta omil ajratiladi: mustaqil, uzatuvchi va motivatorlar .

**Mustaqil:** salomatlik va kasallik bilan o'zaro bog'liqligi (korrelyatsiyasi) eng kuchlidir:

Salomatlikka yoki kasallikka moyil qiladigan omillar:

Xulq-atvori patterni; A (ambitsiyalik, aggressivlik, kompetentlik, qo'zg'aluvchanlik, mushaklarning zo'riqishi, tezkor faoliyat turi, yurak-tomir kasalliklarining yuqori xavfi) va B (qarshi sifatlar) tipidagi xatti-harakatlar omillari.

Yordamchi dispozitsiyalar (masalan, optimizm va pessimizm).

Hissiy patternlar (masalan, aleksitimiya).

Kognitiv omillar — salomatlik va kasallik, norma, qadriyatlar, salomatlikka bo’lgan shaxsiy baho va boshqalar haqida tushunchalar.

Ijtimoiy muhit omillari — ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, oila, kasbiy muhit.

Demografik omillar — jins omili, individual coping-strategiyalar, etnik guruhlar, ijtimoiy sinflar.

### **Uzatuvchi omillar:**

Turli darajadagi muammolarni boshqara olish.

Moddalar qabul qilish va ularning suiste’mol qilinishi (spirtli ichimliklar, nikotin, oziq-ovqat buzilishlari).

Sog’likni mustahkamlaydigan xatti-harakatlar turlari (ekologik muhitni tanlash, jismoniy faollik).

Sog’lom turmush tarzi qoidalariga rioya qilish.

### **Motivatorlar:**

Stressorlar.

Kasallikning mavjudligi (kasallikning o’tkir epizodlariga moslashish jarayoni).

Jismoniy salomatlik omillari:

Jismoniy rivojlanish darajasi;

Jismoniy tayyorgarlik darajasi;

Zo’riqishlar uchun funktional tayyorgarlik darajasi;

Moslashuvchan zaxiralarni safarbar qilish (mobilizatsiya) darajasi va yashash muhitining turli omillariga moslashishni ta’minlaydigan bunday mobilizatsiyaga tayyorlik.

Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti erkaklar va ayollar salomatligidagi farqlarni o’rganishda biologik mezonlarni emas, balki gender (irsiy) mezonlardan foydalanishni tavsiya qiladi, chunki aynan ular mavjud farqlarni yaxshi tushuntiradi. Sotsializatsiya jarayonida erkaklarda o’z-o’zini himoya qiladigan xatti-harakatlardan voz kechish, katta daromad olishga qaratilgan xatarli va tavakkalli xatti-harakatlar amalga oshirilishi rag’batlantiriladi; ayollarda esa

bo'lajak onalar sifatida salomatlikni saqlash. Ammo salomatlikning tashqi chiroy kabi namoyoniga urg'u berilganda, sog'lom faoliyat ko'rsatish o'rniga xarakterli ayollar buzilishlari sodir bo'lishi mumkin, qoida tariqasida oshoqozon-ichak buzilishlari.

Erkaklar va ayollarning umr ko'rish davomiyligidagi farq yashash joyiga bog'liqdir; Yevropada bu yetarlicha farq qilsa, Osiyo va Afrikaning bir qator mamlakatlarida deyarli yo'q bo'lib, bu birinchi navbatda jinsiy a'zoni kesish, homiladorlikning asoratlanishi, tug'ruq va yomon bajarilgan abort qilish tufayli ayollar o'limi bilan bog'liq.

Shifokorlar erkaklarga nisbatan o'zlarining kasalliklari haqida ayollarga to'liq bo'limgan ma'lumot berishlari ko'rsatilgan.

Salomatlik omillariga daromad va ijtimoiy mavqe, qo'llab-quvvatlash ijtimoiy tarmoqlari, ta'lim va savodxonlik, bandlik / mehnat sharoitlari, ijtimoiy muhit, jismoniy muhit, sog'liqni saqlash bo'yicha shaxsiy tajriba va qobiliyatlar, bolaning sog'lom rivojlanishi, biologiya va genetika rivojlanganlik darajasi, tibbiy xizmatlar va madaniyat tegishlidir.

## **RUHIY SALOMATLIK**

**Ruhiy (psixik) salomatlik** — insonning murakkab hayotiy sharoitlarini yengish, shu bilan birga eng optimal hissiy fonni va xatti-harakatlarning adekvatligini saqlab qolish qobiliyatidir. Ruhiy salomatlik tushunchasi, *euthumiya* («ruhiyatning yaxshi holati») Demokrit tomonidan tasvirlangan, Suqrotning hayoti va o'limiga tegishli bo'lgan ichki garmoniyaga erishgan insonning obrazi Platonning dialoglarida qayd qilingan. Turli tadqiqotlarda ruhiy azob-uqubatlarning manbai ko'pincha madaniyat deb ataladi (Zigmund Freyd , Alfred Adler, Karen Horney, Erix Fromm ishlarida). Viktor Frankl ruhiy sog'lomlikning muhim omilini insonda qadriyatlar tizimining mavjudligi deb ataydi.

Sog'liqni saqlashga gender yondashuv bilan bog'liq holda, ruhiy salomatlikning bir nechta modeli ishlab chiqildi:

**Normativ**, ruhiy salomatlikning ikki tomonlama standartini qo'llagan holda (erkak va ayollar uchun).

**Androsentrik**, ruhiy salomatlikning erkak standarti qabul qilingan.

**Androgin**, jinsdan qat’iy nazar, yagona ruhiy salomatlik standarti va mijozlarga nisbatan bir xil munosabatda bo’lishni o’z ichiga oladi.

**Normativ bo’Imagan** (Sandra Bem modeli bo'yicha) bu faqat erkaklarga yoki ayollarga tegishli bo’lgan xususiyatlar bilan assotsiatsiyalanmaydigan sifatlarga asoslangan.

## **KASBIY SALOMATLIK**

Ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida «**kasbiy (professional) salomatlik**» birinchi bo’lib XX asrning 80-yillari o’talarida psixologik ilmiy adabiyotlarda paydo bo’ldi. Birinchi marta 1986 yilda Jorj Everly tomonidan mehnat gigienasi va mehnat psixologiyasi kabi sohalarda tashkiliy ishlarni amalga oshirish jarayonida integratsiya muammolari bo'yicha nashrda ishlatilgan. R. A. Berezovskaya ta’kidlaganidek, ushbu tadqiqotchi ish joylarda salomatlikni qo’llab-quvvatlash va rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda psixologlarning muhim roliga e’tiborni qaratdi. Keyinchalik, 1990-yilda Gavaya universiteti tadqiqotchilari Reymon, Vud va Patrik (J. Ramond, D. Wood, W. Patrick) o’z maqolalarida psixologiyaning vazifalaridan biri sog’lom professional muhit va sog’lom ish o’rinlari yaratish bo’lishi kerak degan fikrni shakllantirgan.

Rus tadqiqotlarida ushbu mavzu birinchi marta 1991-yilda «Kasbiy faoliyatni psixologik qo’llab-quvvatlash» nomli kollektiv monografiyasining «Salomatlik psixologiyasi» bo’limida namoyish etildi. Mualliflar, Sankt-Peterburg universiteti psixologiya fakulteti olimlari, kitobda asosiy e’tiborni sog’lom turmush tarzini shakllantirishning psixologik jihatlari, kasbiy faoliyat psixogigienasi, kasbiy mehnatning psixologik xavfsizligini ta’minalash, kasbiy uzoq umr ko’rish va ishlab chiqarishda psixologik yengillashish kabinetini tashkillashtirish masalalariga qaratgan, lekin kasbiy salomatlik tushunchasining ta’rifini keltirilmagan.

1992-yilda tibbiyot fanlari doktori, harbiy shifokor V. A. Ponomaryenko tomonidan aytilgan ta’rifga ko’ra, kasbiy salomatlik — kasbiy faoliyatning barcha sharoitlarida mehnat qobiliyatini ta’minlovchi kompensator va himoya mexanizmlarini saqlab qolish qobiliyatidir. Kasbiy salomatlik tushunchasi

«Sog'lom kishi salomatligi» (1996 yil) asarida ham xuddi shunday ta'riflanadi, faqat qo'shimcha ravishda professional ishonchlilikni ta'minlash zaruriyati bilan to'ldirilgan. Keyinchalik V. A. Ponomarenko va A. N. Razumov kasbiy salomatlikka tizim ko'rinishida qarashni taklif qildi, tizimning asosiy tuzilmaviy komponentlari funktsional holat, ruhiy va jismoniy sifat, ishchilarining kasbiy mehnatga bardosh bera olishi va ularning faoliyati ishonchliligiga zamin yaratadigan klinik, ruhiy va jismoniy statuslardir. Keltirilgan tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, kasbiy salomatlik tuzilmasida markaziy o'rinni professional-muhim sifatlar egallaydi, ular insonning genotipik statusi, uning funktsional zaxiralari, keyinchalik esa (bevosita va bilvosita) — kishining funktsional holatini belgilaydi. Keyinchalik, psixologiyaning rivojlanayotgan yangi bo'limi — salomatlik psixologiyasida kasbiy salomatlik (endi har qanday kasb-hunar uchun) «kishi organizmining muayyan davri davomida belgilangan samaradorlik va davomiylig bilan muayyan kasbiy faoliyatga qodirligi, shuningdek bu faoliyatga hamrohlik qiluvchi noqulay omillarga bardosh bera olishini baholash maqsadida organizm funktsional holatining jismoniy va ruhiy ko'rsatkichlarining integral xarakteristikasi» deb ta'riflana boshladi.

Kasbiy salomatlikning mezoni sifatida «mutaxassis faoliyatining uning organizmi funktsional holati, fiziologik qiymatini hisobga olishdan kelib chiqib, mumkin bo'lgan maksimal samaradorligi» deb belgilanadigan insonning mehnat qobiliyati xizmat qiladi.

Zamonaviy tushunchada, kasbiy salomatlik kasbiy faoliyat talablariga javob beradigan va uning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan mutaxassis xarakteristikalarining muayyan darajasi ko'rildi.

Insonning kasbiy salomatligini saqlash va bir vaqtning o'zida samaradorlikni ta'minlash insonning psixologik kasbiy adaptatsiyasi (moslashuvchanligi) bilan bog'liq. Adaptatsiyaning buzilganligi (dezadaptatsiya belgilari) bir tomondan salbiy psixik holatlarning yuzaga kelishi bo'lsa, ikkinchi tomondan uning faoliyat samaradorligi pasayishi hisoblanadi.

Kasbiy salomatlik professional (va umuman hayotiy) farovonlik uchun zarur

bo'lgan sharoitdir.

## SOG'LOM TURMUSH TARZI

Psixologo-pedagogik yo'nalishda sog'lom turmush tarzi kishi ongi, psixologiyasi va motivatsiyasi nuqtai nazaridan qaraladi. Boshqa nuqtai nazarlar ham mavjud (masalan, tibbiy-biologik), lekin ular o'rtasida keskin farq chegarasi mavjud emas, chunki ular bitta muammo — individuum salomatligini mustahkamlashga qaratilgan.

Sog'lom turmush tarzi inson hayotining turli jihatlari rivojlanishiga, uzoq umr ko'rish va ijtimoiy vazifalarini to'laqonli bajarish, mehnat, jamoaviy, oila-ro'zg'or kabi hayot kechirish shakllarida faol ishtirok etishiga zamin yaratadi. Sog'lom turmush tarzi insonning ko'zlangan faolligining o'ziga xos shakli — o'zining salomatligini saqlash, mustahkamlash va yaxshilashga qaratilgan faoliyat sifatida namoyon bo'ladi.

Sog'lom turmush tarzining muhimligi salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatadigan jamoat hayotining murakkablashishi, texnogen, ekologik, psixologik, siyosiy va harbiy xarakterli xavflarning ortishi tufayli chaqirilgan.

## SOG'LIQNI SAQLASH

**Sog'liqni saqlash** — davlat faoliyatining bir sohasi bo'lib, uning maqsadi aholiga tibbiy ximat ko'rsatishni tashkillashtirish va ta'minlash hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash mamlakat iqtisodiyotining muhim qismini tashkil etishi mumkin. 2008 yilda sog'liqni saqlash sektori iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga kiruvchi eng rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning o'rtacha 9,0 foizini iste'mol qilgan edi.

Sog'liqni saqlash an'anaviy ravishda butun dunyodagi odamlar salomatligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Buning misoli 1980 yilda dunyo miqyosida chechak kasalligiga barham berish sanaladi, JSST unga insoniyat tarixida sog'liqni saqlashning qasddan aralashuvi natijasida to'liq bartaraf etilgan birinchi kasallik deb ta'rif bergan.

Xonkeldiev Sh., Abdullaev A. va boshqalar “Umumiy ta’lim maktabi o‘quvchilarining sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyati” uslubity qo‘llanmasi “Farg‘ona” nashriyoti, 2011 y.

# **IV. AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

## **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

**Mavzu:** Sog'lom turmush tarzining asosiy omillari,tog'ri va sifatli ovqatlanish, hamda ovqatlanish jarayonida gigienik talablarga qat'iy rivoja qilish. (2-SOAT)

SALOMATLIK TUSHUNCHASI, SALOMATLIK ETİOLOGİYASI, VALEOGENEZİ, SALOMATLIK BELGİLERİ, SALOMATLIKNI TASHXİSLASH HAQIDA TUSHUNCHAGA EGA BO'LISH.

### **2-AMALIY MASHG'ULOT**

**MAVZU:** Ish va dam olish rejimi. (2-SOAT)

SALOMATLIKNI ORGANIZMNING ADAPTATSIYA İMKONİYATLARIĞA KO'RA TASHXISLASH

### **3-AMALIY MASHG'ULOT**

**MAVZU:** Optimal harakat faolligi. (2-SOAT)

INSON SALOMATLİĞİNİ MUSTAHKAMLASHDA  
ORGANİZMNİNG BİOENCRGETİK  
İMKONİYATLARIDAN FOYDALANISH.  
ORGANİZMNİNG BİOLOGİK MAYDONI VA UNİNG  
TUZİLİŞİ

#### **4-AMALIY MASHG‘ULOT**

**Mavzu: Zararli odatlarni oldini olish. (2-soat)**

**Salomatlikni mustahkamlashning  
fiziologik mexanizmlari**

#### **5-AMALIY MASHG‘ULOT**

**MAVZU: Sog’lom turmush tarzini shaklantirishda atrof muhitning sofligi va  
uni muhofaza qilishga erishish. (2-soat)**

**SOG‘LOM VA NOSOG‘LOM TURMUSH**

**TARZI TUSHUNCHALARİ.**

**SOG‘LOM TURMUSH TARZI MEZONLARI**

## **1-AMALIY MASHG'ULOT**

### **SOG'LOM TURMUSH TARZINING ASOSIY OMILLARI, TOG'RI VA SIFATLI OVQATLANISH, HAMDA OVQATLANISH JARAYONIDA GIGIENIK TALABLARGA QATIY RIOYA QILISH.**

Organizmning bioenergetik tizimi. uning tabiatini va inson salomatligini mustahkamlaslugi ahamiyati haqidagi tushunchalarimiz ilm-fan taraqqiyotining, ayniqsa, tabiiy fanlardan bo'Igan fizika fanining so'nggi yutuqlari tufayli kundankunga kengayib bormoqda. Turli xil fiziologik jarayonlarning - fikrlash, qo'zg'alish, shuningdek, faqat ayrim odamlarga xos bo'Igan sirli xususiyatlarning mohiyatini tushunish imkoniyatlari tug'ilmoqda. Energiya organizmning me'yoriy faoliyat ko'rsatishi uchun zarur shartlardan eng muhimi bo'lib, uning yordamida:

- tashqi muhitdan axborotlar qabul qilib olinadi va markaziy asab tizimiga yetkazib beriladi; organizmning ichki holati haqida axborotlar olinib, tashqi muhit sharoitiga moslashtiriladi;
- tafakkur jarayonlari ta'minlanadi; ehtiroslar ta'minlanadi va tartibga solinadi;
- energetik zaxira va zarur moddalar yaratiladi.

Inson salomatligi va kasalligi ijtimoiy muhit hamda uning ta'sir etuvchi omillari bilan belgilanuvchi kategoriyalardir.

Insot salomatligi - uning tug'ma yoki hayoti davomida orttirilgan biologik va ijtimoiy ta'sirlar uyg'unlashgan holati bo'lsa, kasallik esa shu uyg'unlik holatining buzilishidir.

Inson salomatligi - bu shunday ijtimoiy-biologik va ruhiy uyg'unlik holatiki, bunda tana tizimi va undagi barcha a'zolar faoliyati tabiiy va ijtimoiy muhit bilan to'la muvofiqlashgan bo'lib, birorta ham kasallik holati yoki jismoniy nuqsonlar uchramaydi. Ijtimoiy salomatlik - bu aholi salomatligi bo'lib, u ijtimoiy va biologik omillarning o'zaro ta'sirida shakllanadi va uning darajasi demografik, jismoniy rivojlanish, kasallanish hamda nogironlik ko'rsatkichlari bilan baholanadi.

Populatsiyaning salomatligi butun bir millat, region, mamlakat aholisining salomatligi bo'lib, tug'ilish, o'lim, bolalar o'limi, o'rtacha umr ko'rish davomiyligi, kasallanish, nogironlik kabi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

Respublikamizda sog'lom avlodni shakllantirish borasida olib borilayotgan sog'lomlashtirish tadbirlari reproduktiv salomatlikni mustah-kamlashga qaratilayotganligi bejiz emas. Zero, reproduktiv salomatlik oxir-oqibatda har bir insonning individual salomatligini, butun bir millatning (populatsiyaning) salomatligini belgilaydi. Jamiyatda individual salomatlikni mustahkamlashga o'tilayotgan bir paytda, uning ayrim tomonlariga e'tiborni qaratish muhimdir.

Salomatlikni faqat passiv himoya yo'li bilan saqlab bo'lmaydi. Salomatlik shunday bir imoratki, uni mustahkam qilib qurish kerak. Uning asosi - poydevorini mustahkamlash kerak. Sog'lijni saqlashning eng yaxshi usuli ana shu, shundagina bu imorat uzoq vaqt turadi.

Salomatlik - organizmning shunday tabiiy holatiki, bunda barcha a'zo va tizimlar o'zaro dinamik muvozanatlashgan hamda uyg'unlashgan, mukammal o'zini-o'zi boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Butun JAHON Sog'lijni Saqlash Tashkiloti Nizomida ta'riflanganidek: "Salomatlik - bu inson organizmida nafaqat kasalliklarning va jismoniy nuqsonlarning yo'qligi, balki insonning shunday holatiki, unda organizm to'liq jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy xotirjamlikka ega bo'ladi".

Inson salomatligi har bir insonning o'zi uchungina zaruriy holat bo'lib qolmasdan, ayni paytda muhim ijtimoiy va axloqiy-ma'naviy ahamiyatga ham egadir.

Ko'rinib turibdiki, bu qoidalar ko'pchilik uchun yangilik emas va har bir insondan oqilona yashash tarzini tashkil qila bilishni talab qiladi, xolos.

Salomatlik etiologiyasi haqida fikr yuritilganda inson salomatligini shakllantiruvchi omillar, mustahkam va barqaror salomatlik zamirida yotuvchi tub sabablar haqidagi ta'limot tushunilmog'i joiz.

Valeogenet insonning butun umri davomida taraqqiy etib, sifati va jadalligi jihatidan organizmning yoshi, irsiy xususiyatlari bilan chegaralangan holda takomillashib boradi. Valeogenet asosida insondagi tug'ma va ontogenetik xususiyatlar hamda fiziologik tizimlar faoliyatini muttasil ravishda ehiniqtirib borish natijasida shakllangan va tashqi muhitning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashib yashay olishdan orttirilgan xususiyatlar yotadi.

Salomatlik belgilari va uning mezonlari haqida so'z yuritar ekanmiz, eng avvalo bu insonning jismoniy salomatligi ko'rsatkichlari: yoshi, vazni, tomir urishi, qon bosimi, o'pkaning tiriklik sig'imi, qo'l kafti hamda barmoq muskullari kuehi va shu kabilarda namoyon bo'lishini. ikkinchidan, insonning ruhiy salomatligi belgilari va uning mezonlarini (bu haqda ruhiy salomatlik haqidagi bo'limga qarang) hamda axloqiy salomatlik belgilari va me'yirlari (xulqi, zararli odatlari va shu kabilalar) ni ko'rsatib o'tishimiz lozim.

Inson salomatligini tashxislashda birgina salomatlikning jismoniy ko'rsatkiehlariga tayangan holda ish ko'rmay, balki, uning ruhiy va axloqiy salomatligi holatlarini ham qamrab, ularni baholashni taqozo qiladi.

Inson organizmining muhim jismoniy salomatligi ko'rsatkichlaridan biri uning me'yoriy vazni hisoblanib, tibbiyotda uning etaloni sifatida har bir (xlamning 25 yoshligidagi vazn qiymati qabul qilingan. Birocj, ko'pchilik odamlar o'z gavda vazni 25 voshlik paytida qancha bo'lganligiga e'tibor berishmaydi. Shuni hisobga olgan holda odam gavda vaznni aniqlash uchun zarur ma'lumotlar keltirilgan 1-jadvakUin foydalanib, odam konstitutsiyasi (tana tuzilishi) hamda bo'yiga ko'ra uning vaznni erk;ik va ayollarda hisoblab chiqarish mumkin.

### **Salomatlik holatini baholashning tezkor usuli**

Kiyevlik tadqiqotchilar G.L.Apanasenko bilan Naumenko taklif qilgan (1988) salomatlik holatini baholash tezkor usulining afzalligi shundaki, unda oddiygina ko'rsatkichlar ahamiyatiga ko'ra joylashtiriladi va ballar asosida baholanadi. Usui jo'n va sodda boiganligi uchun undan o'rta tibbiy xodimlar ham bemalol foydalanishlari mumkin. Individ somatik salomatligining umumiyligi holati har bir tekshirish usulidan olingan ballar yig'indisiga qarab past, o'rtachadan past, o'rtacha, o'rtachadan yuqori va yuqori baholanadi.

G.L. Apanasenko usulidan foydalanish uchun tibbiyot tarozisi, bo'y o'lchagich, tanometr, spirometr, dinamometr va sekundomer kabi jihozlar talab qilinadi. Ushbu o'lchovlarni bajarishga 10-12 daqiqa sarllanadi. Dastlab tinch holatda o'pkaning tiriklik sig'imi, yurak urishi tezligi, arterial qon bosimi, gavda vazni, bo'yi, kaft dinamometriyasi o'lchanadi.

So'ngra funksional sinov o'tkaziladi va bunda 30 soniya davomida 20 marta o'tirib turiladi. 3 daqiqa yurak urishining qayta tiklanish vaqtি hisoblanadi. Olingan natijalarga ko'ra quyidagi indeks (kattalik)lar hisoblab chiqiladi:

### **Organizmning jismoniy salomatlik darajasi va salomatlikning “xavfsiz zonasi” haqida**

G.L.Apanasenko tomonidan uzoq yiliar davomida olib borilgan tadqiqotlar organizmning jismoniy salomatlik darajasini aniqlash imkonini berdi. U “xavfsiz zonani” aniqlashning eng sodda usulini taklif etdi. Gap shundaki, inson hayotiga xavf soluvchi bir qator surunkali kasallikkarning oldini olishda organizmni salomatlikning xavfsiz zonasiga olib chiqish muhim amaliy aham iyatga ega. Bunga turli xil sog'lomlashtiruvchi tadbirlarni o'z vaqtida qo'llash tufayli erishish mumkin. Yosh ulg'ayishi bilan tana salomatlik darajasi ham pasaya boradi. G.L.Apanasenko salomatlikning “xavfsiz zonadan” chiqishi inson yoshiga bog'liqligi dinamikasini aniqlashning amaliyot uchun qulay jadvalini ham taqdim etdi. Unga ko'ra tana salomatligi darajasi ballarda belgilanadi.

Salomatlikni organizmning adaptatsiya imkoniyatlari ko'ra tashxislash Mazkur usul ukrainalik tadqiqotchi (R.M. Bayevskiy, 1979-yil) tomonidan taklif etilgan. Organizmda birorta patologik jarayon shakllangunga qadar uning adaptatsion imkoniyatlari quyidagi 3 ta bosqichdan o'tadi:

- moslashuv reaksiyalarining me'yoriy kechishi; • moslashuv mexanizmlarining zo'riqishi;
- moslashuv mexanizmlarining ortiqcha zo'riqishi va ishdan chiqishi. Buning mazmuni shundan iboratki, patologik jarayon yuzaga chiqquncha organizmning me'yoriy moslashuv mexanizmlari dastlab zo'riqadi, so'ngra izdan chiqadi va parchalanib, kasallik kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Organizmda kasallik belgilari namoyon bo'lgunga qadar organizm salomatlik holatini baholash va tashxislash uchun yurak urishi ritmlarini elekrokardiogramma yordamida aniqlab, uni matematik tahlil qilish usuli amaliyotda ko'proq qo'llanilmoqda.

Salomatlikni nazologik belgilar paydo bo'lgunga qadar tashxis- lash va baholashning ikkinchi bir oson usuli "qon aylanish tizimining adaptatsion potensialini hisoblab chiqishdir". Buning uchun: mijoz- ning yoshi, vazni, bo'yи, tomir urishi tezligi, arterial qon bosimi aniqlanadi.

### **Inson salomatligining miqdor va sifat ko'rsatkichlari**

Ma'lumki, miqdor va sifat tushunchalari falsafiy kategoriyalar bo'lib, o'zaro uzviy aloqadorlikda rivojlanadi, bir-birini taqozo etadi. Organizm miqdoriy ko'rsatkichlarining o'zgarishi so'zsiz sifat o'zgarishlarini keltirib chiqaradi. Chunonchi, tana vaznining me'yoriy talablardan oshib ketishi bilan bog'liq semirish holati turli xil sifat o'zgarishlariga olib keladi. Semizlikning o'zi kasallikdir. Bu dardga chalinganlarda - gipodinamiya, tez charchash, oddiy jismoniy yumush bilan ham shug'ullana olmaslik kabi birlamchi salbiy sifat ko'rsatkichlari kuzatilsa, keyinchalik ateroskleroz, yurak ishemiyasi, qon bosimining oshishi kabi ikkilamchi jiddiy kasalliklar paydo bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilgan miqdor va sifat ko'rsatkichlaridan ko'rinish turibdiki, ular biri-biri bilan o'zaro bog'liqdir.

Buning aksi o'laroq, muttasil jismoniy faol kishilar, jismoniy mashg'ulot bilan muntazam shug'ullanuvchilar, shuningdek, tog' iqlimi sharoitida yashovchilar yuqorida ko'rsatilgan qator salbiy sifat ko'rsatkichlaridan xalosdirlar. Bunday odamlar haqida xalqimiz "chinorday sog'lom va baquvvat", degan iborani ishlatadi. Ularning yuz ko'rinishi toza va qizg'ish, kayfiyati xushchaqchaq, aqliy va jismoniy mehnat unumdonligi esa baland bo'ladi.

Valeologiya amaliyoti uchun muhim bo'Igan sifat ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- yil davomida turli xil nafas yo'llari xastaliklariga chalinmaslik; • o'zini qulay holatda sezish;
- subyektiv shikoyatlar bo'lmasligi, obyektiv tekshirish jarayonida kasallik belgilari uchramasligi;
- mehnat qilib charchamasligi;
- biologik va valeologik yosh\* o'rtasida farq mavjudligi; •

tana a'zolarining mutanosib rivojlanishi.

## **ASOSIY ADABIYOTLAR**

Sodiqov B.Q, Aripova S.X., SHaxmurova G.A. “YOsh fiziologiyasi va gigiena”. Darslik. T.:YAngi asr avlodi. 2009 y.

Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. O'quv qo'llanma. T.: 2005.

## **QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR**

Abdullaev A., Rasulov R., Xasanov A. Umumiy o'rta va kasb-hunar ta'limi tizimlarida jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari ishlar. Toshkent – 2009.

Xonkeldiev Sh., Abdullaev A. va boshqalar “Sog'lom turmush tarzining jismoniy madaniyati” O'quv-qo'llanmasi “Farg‘ona” nashriyoti, 2010 y.

Xonkeldiev Sh., Abdullaev A. va boshqalar “Kasb-hunar kollejlari o'quvchi-yoshlarning sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati” O'quv-qo'llanmasi “Farg‘ona” nashriyoti, 2010 y.

Xonkeldiev Sh., Abdullaev A. va boshqalar “Umumiy ta'lim maktabi o'quvchilarining sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati” uslubiy qo'llanmasi “Farg‘ona” nashriyoti, 2011 y

Nasriddinov F. “Kamolot va ma’naviyat saboqlari”. Toshkent., - “Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti” – 1998 y.

## **2-AMALIY MASHGULOT: ISH VA DAM OLISH REJIMI. (2-SOAT)**

### **YAGONA SILJISH REJIMI**

Bu mehnat faoliyati vaqtini qayd etish usuliga bog'liq. Bu tashkilotning ichki qoidalari bilan belgilanadi.

Oddiy ish vaqtida ish vaqtি kunlik, haftalik yoki umumlashtirilgan holda hisoblanishi mumkin.

Mehnat kodeksining 100-moddasi qoidalariiga asosan korxona quyidagilarni belgilashi mumkin:

ikki dam olish kuni bilan besh kunlik hafta;

bir kunlik dam olish bilan olti kun;

prokat jadvali bo'yicha dam olish kunlarini ta'minlash bilan hafta.

San'atga muvofiq. 104 TC, tashkilot umumlashtirilgan buxgalteriya hisobini ta'minlashi mumkin.

Amalda kundalik ish vaqtি bir smenali deb ataladi.

Kundalik buxgalteriya hisobi bo'lsa, belgilangan me'yordan ortiq bo'lgan har qanday ish faoliyati ortiqcha ish deb hisoblanishi kerak. Unga jalb qilish tartibi Mehnat kodeksining 99-moddasi bilan tartibga solinadi.

### Xulosa hisobi

Hisoblash davri sifatida foydalanilganda bir kundan yoki bir haftadan ortiq muddat belgilanadi. Minimal muddat bir oy, maksimal muddat esa bir yil.

Korxonalarda yoki mehnat faoliyatining ayrim turlarini amalgalashirishda, agar ishlab chiqarish sharoitlari tufayli kunlik yoki haftalik ish vaqtiga rioya qilish imkonи bo'lmasa, qonun hujjatlari umumlashtirilgan buxgalteriya hisobini o'rnatishga ruxsat beradi. Bu hisob-kitob davri uchun mehnat faoliyatining umumiyligi davomiyligi soatlar normasidan oshmasligi uchun kerak.

Buxgalteriya hisobi choraklik, oylik, haftalik, yillik bo'lishi mumkin. U navbatchilik asosida ish jarayonini tashkil etishda, transport xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlarda qo'llaniladi.

Kümülatif buxgalteriya hisobi bilan qonun maksimal muddatni nazarda tutmaydi. Biroq, amalda maksimal muddat odatda 8-12 soatni tashkil qiladi.

### Noto'g'ri jadval

Bunday ish vaqtini rejimi bilan xodimlar korxona rahbarining buyrug'i bilan vaqtini bilan qonun bilan belgilangan smenaning normal davomiyligidan tashqari vazifalarni bajarishga jalb qilinishi mumkin. Jamoa shartnomasi, qoidalar, maxsus nizom yoki boshqa mahalliy aktda tartibsiz jadval taqdim etilishi mumkin bo'lgan aniq lavozimlar ro'yxati belgilanadi.

Bunday ish vaqtini rejimining o'ziga xosligi shundaki, xodim mehnatga jalb qilishning umumiyligi tartibiga bo'ysunadi. Biroq, ish beruvchining iltimosiga binoan, u smena tugaganidan keyin o'z vazifalarini bajarish uchun ish joyida qolishi yoki u boshlanishidan oldin korxonaga chaqirilishi mumkin.

### Muhim nuqta

Shuni ta'kidlash kerakki, tartibsiz ish vaqtini bilan xodimlar faqat shartnomada va lavozim tavslifida belgilangan vazifalarni bajarishi mumkin. Siz xodimlarni boshqa vazifalarni bajarishga majbur qila olmaysiz, shu jumladan smena tugagandan keyin

yoki boshlanishidan oldin. Mehnat kodeksining 60-moddasi qoidalari, odatda, fuqaroni shartnomada ko'rsatilmagan vazifalarni bajarishga jalb qilishga yo'l qo'yaydi.

Kim uchun tartibsiz jadval o'rnatilishi mumkin?

Mehnat kodeksida maxsus ro'yxatda tayinlangan xodimlar toifalari ushbu rejimda ishlashi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Ushbu ro'yxat jamoa shartnomasiga, ish vaqtining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi nizomga yoki tashkilotning boshqa mahalliy aktiga ilova qilinishi kerak. Ro'yxat mintaqaviy, tarmoq va boshqa shartnomalarda ham belgilanishi mumkin.

Xodimlar uchun tartibsiz jadval o'rnatilishi mumkin:

boshqaruv, texnik, ma'muriy, iqtisodiy xodimlar;

hisobga olinmaydigan mehnat faoliyati vaqt;

ish vaqtini o'z xohishiga ko'ra taqsimlash;

uning o'zgarishi turli xil davomiylidagi qismlarga bo'linadi.

Agar jadval tartibsiz bo'lsa, ish beruvchi xodimlarni ularning roziligesiz qo'shimcha ishlarga jalb qilish huquqiga ega. Albatta, bu o'ta sanoat zarurati holatlari bo'lishi kerak. Shu bilan birga, xodimlar bunday mehnat faoliyatidan bosh tortishlari mumkin emas, aks holda intizomning qo'pol buzilishi qayd etiladi.

Xodimlarning kafolatlari

Xodimlar uchun tartibsiz ish jadvalini belgilash Mehnat kodeksining ish vaqtining o'ziga xos xususiyatlarini va dam olishni ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlarini tartibga soluvchi umumiy normalari ularga taalluqli emasligini anglatmaydi.

Noqonuniy jadval muayyan ishlov berishni nazarda tutadi. Shu munosabat bilan, Mehnat kodeksida ish beruvchining ularga qo'shimcha ta'til (yillik va pullik) berish yo'li bilan kompensatsiya to'lash majburiyati belgilangan. Uning muddati jamoa shartnomasi, nizom yoki boshqa mahalliy akt bilan belgilanadi, lekin 3 kundan kam bo'lmasligi kerak (kalendor). Agar bunday ta'til berilmasa, qo'shimcha ish vaqt (xodimning roziligi bilan) qo'shimcha ish sifatida qoplanishi mumkin.

Moslashuvchan ish soatlari

U birinchi marta 1980-yillarda taqdim etilgan. Dastlab, bunday rejim bolali ayol xodimlar uchun amal qilgan. Keyinchalik, uning ta'siri boshqa toifadagi ishchilarga ham tarqaldi.

Moslashuvchan jadval ish faoliyatini shunday tashkil qilishni nazarda tutadi, unda ba'zi xodimlar yoki bo'limlar (bo'limlar) jamoalari uchun smenaning (kunning) boshlanishi, tugashi va umumiy davomiyligini o'z-o'zini tartibga solishga ruxsat beriladi (oldindan belgilangan doirada). Bunday holda, hisob-kitob davrida qonun bilan belgilangan umumiy soatlar sonini to'liq ishlab chiqish kerak. Bu kun, oy, hafta va hokazo bo'lishi mumkin.

Ish vaqtি rejimining o'ziga xos xususiyatlari shundaki, ish jadvallari xodimlar va ish beruvchi o'rtasidagi kelishuv asosida belgilanadi. Bundan tashqari, ular shtatga kirishda ham, ish jarayonida ham aniqlanishi mumkin. Sharhnomalar muayyan muddatga yoki hech qanday muddat ko'rsatilmagan holda tuzilishi mumkin. Bunday jadvalni o'rnatish uchun ish vaqtining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha buyruq qabul qilinadi. Unda xodimlarning kasbiy faoliyatini amalga oshiradigan barcha shart-sharoitlar ko'rsatilishi kerak.

### Qo'llash doirasi

Ijtimoiy, maishiy yoki boshqa sabablarga ko'ra oddiy ish vaqtini qo'llash qiyin bo'lgan hollarda moslashuvchan jadvaldan foydalanish tavsiya etiladi. Buxgalteriya tizimini o'zgartirish kundan tejamkor foydalanish imkonini beradi va jamoaning yaxshi muvofiqlashtirilgan ishini ta'minlaydi.

Agar korxonada smenalar bo'g'inlarida bo'sh joylar bo'lmasa, uzlucksiz ishlab chiqarishda uch smenali ish bilan, shuningdek, ikki smenali rejimda moslashuvchan jadvalni joriy etish asossizdir.

Ushbu rejimdan 5 va 6 kunlik haftalarda ham foydalanish mumkin. Uning qo'llanilishi xodimlarning mehnatini me'yorlash va to'lash, imtiyozlar berish, ish stajini hisoblash va boshqa mehnat huquqlari shartlariga ta'sir qilmaydi. Ushbu ish vaqtি pedagogik xodimlar, madaniyat va dam olish muassasalari xodimlari uchun juda mos keladi.

Moslashuvchan rejalashtirishning asosiy elementlari

Smenaning boshida va oxirida xodim o'z xohishiga ko'ra o'z vazifalarini bajarishni boshlashi va tugatishi mumkin bo'lgan vaqt beriladi. Bu davr moslashuvchan jadvalning birinchi elementidir. Ikkinci komponent - belgilangan vaqt. Ushbu davrda xodim, albatta, korxonada bo'lishi kerak. Uning davomiyligi va ahamiyatiga ko'ra, bu vaqt kunning asosiy qismi hisoblanadi. Asosan, xodim o'z vazifalarini yarim kunlik asosda bajaradi.

Belgilangan muddatni o'rnatish ishlab chiqarish jarayoni va xizmat ko'rsatish aloqasining normal borishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, taxminiy davr uchun belgilangan soatlar tezligini ishlab chiqishga imkon beruvchi ikkita interval mavjud:

Ovqatlanish va dam olish uchun tanaffus. Qoida tariqasida, u belgilangan davrni taxminan bir-biriga teng bo'lgan qismlarga ajratadi.

Xodim qonun hujjatlarida belgilangan soat stavkasini ishlab chiqishi kerak bo'lgan hisob-kitob davri. Bu bir oy, bir hafta va hokazo bo'lishi mumkin.

### Davrlarning davomiyligi

Korxona rahbari moslashuvchan jadval elementlarining aniq muddatini o'z xohishiga ko'ra belgilaydi. Moslashuvchan jadvallar hisob-kitob davriga, har bir elementning davomiyligiga, har bir alohida bo'linmada ularni amalga oshirish shartlariga qarab tuzilishi mumkin.

Odatda, haftada 40 soatlik ruxsat etilgan smenaning maksimal davomiyligi 10 soatdan oshmasligi kerak. Ammo istisno hollarda, xodimlarning tashkilotda qolishining maksimal davomiyligi 12 soat bo'lishi mumkin.

### Qonuniy talablar

Moslashuvchan jadvalga ega bo'lgan xodimlardan qo'shimcha ish vaqtini talab qilinishi mumkin. Bunday hollarda ular Mehnat kodeksining 99-moddasida belgilangan qoidalarga bo'ysunadilar.

Moslashuvchan ish rejimini joriy etishning zaruriy sharti - bu vaqtini aniq kuzatishni tashkil etish, har bir xodim tomonidan o'z oldiga qo'yilgan ishlab chiqarish topshirig'ini bajarish, vaqtdan moslashuvchan va qat'iy belgilangan tartibda to'liq va oqilonqa foydalanishni nazorat qilishni ta'minlash. davri.

## Smenali ish

U bir kun ichida 2, 3, 4 smenada ishlashni nazarda tutadi. Masalan, korxonada xodimlar har biri 8 soatdan uch smenada ishlashlari mumkin, bundan tashqari, ma'lum bir davrda ular turli smenalarda vazifalarni bajaradilar.

Bunday jadvalni ishlab chiqarish jarayonining davomiyligi kundalik ishning ruxsat etilgan muddatidan uzoqroq bo'lgan tashkilotlarda joriy etish tavsiya etiladi. Shift rejimi uskunadan samaraliroq foydalanish, taqdim etilayotgan mahsulot yoki xizmatlar hajmini oshirish imkonini beradi.

Smena jadvali bilan xodimlarning har bir guruhi rejaga muvofiq belgilangan smena muddati doirasida vazifalarni bajaradi. Uni tuzishda ish beruvchi kasaba uyushmasining fikrini hisobga olishi kerak.

## Aylanish rejimi

Mehnat jarayonini tashkil etishning ushbu shakli bilan vazifalarni bajarish xodimlarning yashash joyidan tashqarida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ularning har kuni uyga qaytishini ta'minlash mumkin emas.

Aylanish rejimi ishlab chiqarish ob'ekti ish beruvchining joylashgan joyidan sezilarli masofada joylashganida qo'llaniladi. Uning yordami bilan siz qurilish, rekonstruksiya qilish muddatini sezilarli darajada qisqartirishingiz mumkin. Bundan tashqari, ushbu rejimdan maxsus iqlim sharoiti bo'lgan hududlarda foydalanish mumkin.

Aylanma ishning o'ziga xos xususiyati shundaki, xodimlar maxsus yaratilgan aholi punktlarida yashaydi. Ular maishiy xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan va ishlab chiqarish vazifasini bajarish davrida ishchilarning hayotini ta'minlaydigan inshootlar va binolar majmuasini ifodalaydi. Mehnat faoliyati xodimlarni almashtirish orqali amalga oshiriladi.

## Tomosha davomiyligi

Bu qonun hujjalarda mustahkamlangan. To'g'ridan-to'g'ri ob'ektda va qishloqdagi smenalar oralig'ida ishlab chiqarish topshirig'ini bajarish vaqtini o'z ichiga olgan davr aylanish davri deb tan olinadi. Bir smena har kuni ketma-ket 12 soatgacha davom etishi mumkin. Shu bilan birga, mehnat faoliyati davrini ham, dam olish

vaqtini ham o'z ichiga olgan smenaning umumiy davomiyligi 1 oydan oshmasligi kerak.

Istisno hollarda, muddat 3 oygacha oshirilishi mumkin. Biroq, buning uchun kasaba uyushmasining fikrini hisobga olish kerak.

Aylanish rejimida vaqtini kuzatish

Bunday sharoitda ishlash uchun qonunga muvofiq qo'shimcha to'lov olinadi.

Aylanish rejimida bir oy yoki undan ko'proq vaqt uchun, lekin bir yildan ko'p bo'lмаган vaqtini umumlashtirilgan hisobga olish joriy etiladi. Hisob-kitob davri ish beruvchining joylashgan joyidan yoki yig'ish punktidan ob'ektga boradigan yo'lда va ma'lum bir vaqt oralig'ida taqdim etilgan dam olishning butun vaqtini qamrab oladi. Ish vaqtining umumiy davomiyligi Mehnat kodeksida belgilangan normadan oshmasligi kerak.

Buzilgan kun

Ish vaqtini taqsimlash Mehnat kodeksining 105-moddasi qoidalari bilan tartibga solinadi. Ishlab chiqarish sharoitlarining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, smenadagi jarayonning teng bo'lмаган intensivligi tufayli bunday ehtiyoj mavjud bo'lган tashkilotlarda kun qismlarga bo'linishi mumkin. Bu ish vaqtining umumiy davomiyligi standartlarda belgilangan muddatdan oshmasligi uchun kerak.

Qoida tariqasida, faoliyati aholiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lган korxonalarda: transport, savdo tashkilotlari va boshqalarda parchalangan rejim qo'llaniladi.

Dam olish vaqtি

Xodimlar o'z vazifalarini bajarishdan ozod qilinadigan muddatlarni belgilash ish beruvchining zimmasidadir. Xodimlar bunday vaqtdan o'z xohishiga ko'ra foydalanan huquqiga ega.

Qonun hujjalardida dam olishning quyidagi turlari nazarda tutilgan:

Smenada / kun davomida tanaffus.

Smenalararo (kunlik) dam olish.

Dam olish kunlari.

Yillik haq to'lanadigan ta'til.

Bayramlar.

Smenada xodimga ovqatlanish va dam olish uchun tanaffus beriladi. Uning davomiyligi 2 soatdan oshmasligi va 30 daqiqadan kam bo'lmasligi kerak. Tanaffus ish vaqtiga kirmaydi.

Ovqatlanish va dam olish davrining o'ziga xos uzunligi mahalliy normativ hujjat yoki ish beruvchi va xodim o'rtasidagi kelishuv bilan belgilanadi.

Agar mehnat sharoitlari tanaffusga vaqt ajratmasa, ish beruvchi ishlab chiqarish faoliyati davomida ovqatlanish va dam olishni ta'minlashi shart.

Umumiy qoidaga rioya qilmaslik holatlari

Amalda, mehnat va dam olish rejimini tartibga soluvchi Mehnat kodeksining quyidagi qoidalarni buzishga ko'pincha yo'l qo'yiladi:

Korxonada ichki tartib qoidalari, ta'til jadvallari, smenalar va boshqa muhim hujjatlarning yo'qligi.

Xodimlarga ketma-ket 2 yildan ortiq yillik haq to'lanadigan ta'til, shuningdek zararli / xavfli sharoitlarda o'z vazifalarini bajarayotgan xodimlarga qo'shimcha dam olish muddatlari berilmaslik.

Foydalanilmagan ta'tilni naqd to'lovga almashtirish.

Voyaga etmagan qaramog'ida bo'lgan (3 yoshgacha), nogiron bolalari bo'lgan ayollarning yozma rozilgisiz va tibbiy xulosasisiz tungi vaqtida, ish vaqtidan tashqari, dam olish / bayram kunlarida ishlashga jalb qilish.

Yana bir keng tarqalgan qoidabuzarlik - bu xodim ishdan bo'shatilganda foydalanilmagan dam olish uchun pul kompensatsiyasini to'lamaslikdir.

## **ASOSIY ADABIYOTLAR**

Sodiqov B.Q, Aripova S.X., SHaxmurova G.A. "YOsh fiziologiyasi va gigiena". Darslik. T.:YAngi asr avlod. 2009 y.

Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish. O'quv qo'llanma. T.: 2005.

## **QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR**

Abdullaev A., Rasulov R., Xasanov A. Umumiy o'rta va kasb-hunar ta'limi tizimlarida jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari ishlar. Toshkent – 2009.

Xonkeldiev Sh., Abdullaev A. va boshqalar “Sog'lom turmush tarzining jismoniy madaniyati” O‘quv-qo‘llanmasi “Farg‘ona” nashriyoti, 2010 y.

Xonkeldiev Sh., Abdullaev A. va boshqalar “Kasb-hunar kollejlari o‘quvchi-yoshlaringning sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati” O‘quv-qo‘llanmasi “Farg‘ona” nashriyoti, 2010 y.

### **3-AMALIY MASHGULOT: OPTIMAL HARAKAT FAOLLIGI. (2-soat)**

Salomatlikni mustahkamlashning fiziologik mexanizmlarini bilish va ulardan oqilona foydalanish, turmush tarzini shunga mos holda tashkil etish sog'lom turmush tarzi tamoyillarini o'zlashtirish uchun qulay sharoit yaratadi, inson umrini uzaytirib, faol mehnat qilishini ta'minlaydi. Organizmning alohida tizimlari va tana a'zolari faoliyatining fiziologik asoslarini bilish insonning uzoq umr ko'rishi. Iaol hayot kechirishi uchun zarur bo'Igan sog'lom turmush tarzi tamoyiila, i.a ongli ravishda egallahga undovchi asosiy kuchdir.

Yurak va qon tomirlar tizimiga baho berganimizda mustaqil tartibda - yurakning o'tkazuvchi yo'llari ishi tufayli o'z-o'zidan faoliyat ko'rsatayotganday tuyuladi. Aslida yurak-qon tomir tizimi organizmning bir qismi bo'lganligi tufayli, inson vujudining umumiy holati unda bevosita aks etadi. Turli xil stress holatlar, ruhiy ehtiroslar, aqliy zo'riqib ishlash kabilalar ta'sirida endokrin bezlar faoliyati kuchayib, buyrak usti bezida adrenalin gormoni, qalqonsimon bezda tiroksin ishlab chiqilishi kuchayadi. Buning natijasida yurak urishi tezlashadi, qon bosimi oshadi, tananing boshqa a'zolaridagi tomirlar toravadi. miyaning qon bilan ta'minlanishi kamayadi. Bunday zo'riqib ishlash yurak-qon tomirlar faoliyatining tezda izdan chiqishiga sabab bo'ladi. Xuddi shu kabi ovqat hazm qilish tizimi a'zolari faoliyati ham o'zaro uz.viy bog'langan, ovqatni chaynash jarayoni og'iz bo'shlig'idagi a'zolar: tishlarning butun va sog'lom bo'lishini, so'lak bezlari tomonidan ajratib turiladigan so'lak bilan namlanib, uning tarkibidagi ptialin, lizosim kabi fermentlar tufayli parchalanishi va so'riliishi jarayoni boshlanadi. Me'daga tushgan ovqat luqmalari me'da shirasidagi xlорид kislotasi, pepsin va boshqa fermentlar ta'sirida

parchalanib, hazm uchun qulay holga keltiriladi.


Tishlarning turli xil kasalliklar (kariyes, paradontoz, fluoroz kabi) oqibatida barvaqt tushib ketishi, ovqat luqmasini yaxshi chaynashga imkon bermaydi. Yaxshi chaynalm agan ovqatning m e'dada hazm bo'lishi m urakkablashadi, bu holning muttasil davom etishi - m e'daning yallig'lanishi, m e'da yarasi kabi xastaliklarni keltirib chiqaradi. M e'daning kasallanishi esa ovqat tarkibidagi organizm uchun zarur moddalarning so'rilihini qiyinlashtiradi, organizm o'z ehtiyoji uchun lozim vitaminlar, oqsillar, biologik faol moddalarini yetarli miqdorda ololmaydi. Inson salomatligini ta'minlovchi fiziologik mexanizmlar orasida tana a 'zolaridan jigar va buyraklaming vazifalari muhim o'rinni tutadi. Jigar va buyraklar qon tarkibidagi doimiylikni ta'minlovchi bosh tana a 'zolari hisoblanadi. Faqat jigarning mo'tadil faoliyati tufayligina organizmdagi qon miqdorining barqarorligi m e 'yoriy darajada saqlab turiladi. Ma'lumki, inson organizmi o'zida aminokislotalarning zaxirasini yarata olmaydi. Shu sababli m odda alm ashinuv jarayonida hosil bo'ladigan ortiqcha aminokislotalar jigarda kechuvchi uch karbonli kislotalarning Krebs sikli yordamida o'z tarkibidagi amin guruhi (-NH<sub>2</sub>) ni yo'qotadi va suvda tez eriydigan ammiakga aylanadi, hamda mochevina tariqasida siydik orqali chiqarib yuborilib, organizmning o'zini o'zi zaharlashidan saqlaydi. Jigarda hosil bo'luvchi o't suyuqligi yordamida yog'larning hazm bo'lishi tezlashadi. Jigarning retikuloendotelial apparatiga oid kupfer hujayralari qonga tushuvchi turli zaharli moddalarni zararsizlantiri

O'pkaning nafas olish zonasida nafas jarayonini bevosita amalga oshiruvchi ikki muhitning uchrashuvi - o'pka alveolalaridagi havo oqimi va kichik qon aylanish doirasidagi kapillarlardagi qon oqimi bir-biriga yaqin kelib, qondagi karbonat angidridga to'yingan havoning alveolaga va aksincha alveolalardagi kislorodga boy havoning kapillarlarga diffuziya usuli bilan o'tishi sodir bo'ladi. Ko'rinish turibdiki, atrof-muhitdagi havoning musaffoligi va nafas a 'zolari salomatligi, nafas olishda qatnashuvchi muskullaming chiniqtirilganligi organizmning faoliyati uchun zarur bo'Igan kislorod bilan uzluksiz ta'minlanish asosida yotadi. Kasalliklarga

konstitutsional moyiUik Ayrim kasalliklarning kelib chiqishi va inson salomatligining mustahkam bo'lishi shaxsning ruhiy emotsiyal shakllanishiga, oliv asab tizimining o'ziga xos xususiyatiga, ya'ni uning tabiatiga ham bog'liq. Ularni oldindan bilish, har bir kishiga o'z turmush tarzini shunga mos holda tashkil qilish, o'ziga mos kasb tanlash, atrofdagilar bilan yaxshi muomalada bo'lish va turli xil asab kasalliklarining oldini olish imkonini beradi. Akademik I.P.Pavlov asab tizimidagi asosiy jarayonlar: qo'zg'alish va tormozlanishning o'zaro muvozanatlashganligiga qarab, oliv asab tizimi faoliyatining 4 ta turini ajratib ko'rsatgan. Shunga ko'ra asab faoliyati: • kuchli muvozanatlashm agan yoki xolerik; • kuchli harakatchan va muvozanatlashgan yoki sangvinik; • kuchli muvozanatlashgan, sust yoki flegmatik; • kuchsiz torm ozlashgan-m elanxolik turlariga ajratiladi. Inson mizojining bunday turlari dastlab Gippokrat va Abu Ali ibn Sino tomonidan farqlangan. Ular ayrim turdag'i mizoja ega bo'lganlar: turli xil kasalliklarga turlicha moyillikda bo'lishi, shuningdek, bir xil kasalliklarning turlicha mizoja ega bo'lgnalarda turlicha kechishini aytib o'tganlar. Xolerik mizojdagilarda bosh miyada qo'zg'alish jarayoni tormozlanish jarayonidan ustun kelib. bundaylar tabiatan tez qo'zg'aluvchan, serjahl, harakatchan, tezda bir qarorga kelib, shunga mos ravishda harakat qiladi.

Melanxolik mizoja ega bo'lgnalarning bosh miya po'stlog'ida qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari baravariga sust, ular tezda xal'a bo'lish, bosiq tabiatli, ziddiyatli vaziyatlardan uzoq vaqt o'ziga kelmaydigan xususiyatlarga ega bo'lib, ularda turli xil nevrozlar - astenik holatlar, gipotoniya holatlari kuzatiladi. I.P.Pavlov oliv asab faoliyatini yana amalda foydalanish uchun qulay bo'Igan uch turga ajratgan. Bular: • tabiatida ikkinchi signal tizimi faoliyati ustun yoki fikrlovchi turdagilar. Bundaylarning fikrlash qobiliyati yuqori va yaratuvchi tabiatga ega; • badiiylashtirish tabiatiga moyil bo'lgnalr yoki birinchi signal tizimi faoliyati ustun bo'lgnalr; • o'rtacha turdagilar - tabiatida har ikkala signal tizimi muvozanat lashganlar. Hayotda uchinchi turdagilar ko'p uchraydi. Salomatlikning immunologik asosi Inson salomatligini ta'minlashni organizmning immun asoslarini mustahkamlashsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Zero, immunitet organizm

ichki muhiti doimiyligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Immunitet organizm salomatligini ta'minlovchi biologik qonuniyatlar asosida shakllanadi va har bir organizmning umri davomida saqlanishi bilan bir necha avlodlarga bcrilishi mumkin bo'Igan irsiy xususiyatlardan farqlanadi. Inson organizmidagi bunday muhim vazifani ixtisoslashgan immunologik tizim to'qima va hujayralari, alohida tana a'zolari bajaradi.



Shu sababli bu ixtisoslashgan tizim va alohida tana a'zolari salomatligini ta'minlash amaliy jihatdan ham juda muhimdir. Funksional jihatidan ixtisoslashgan bu tizim, o'z tarkibiga organizmning limbid tizimi, eng avvalo, limfositlarni, timus bezini, taloq, jigar kabi a'zolarni, limfa tugunlarini, tomoq-limfa-epitelial halqasi (bodomsimon bczlar va boshqalar)ni, ichaklardagi guruh-guruh bo'lib joylashgan limfatik lollikulalar (Peyer tugunlari)ni va boshqa limfatik tizimlarni qamrab oladi.

Inson salomatligiga tizimli-sinegretik yondashuv Inson organizmining murakkab tuzilishga ega ekanligi, salomat ligining ko'p bosqichli va ko'p komponentliligi uning mohiyatini to'liq ochib berish masalasiga tizimli-sinergetik nuqtai nazardan yondashishni talab qiladi. Valeologiya fan sifatida o'zining harakat doirasi markaziga sog'lom yoki salomatlikning uchinchi holatida bo'Igan insonni qo'yari

ekan, biz eng avvalo insonning o'zi nima? U qanday tuzilishga ega? degan savollarga javob axtarishimiz lozim. Mashhur faylasuf Aflatun inson tanasi salomatligini uning ruhiy salomatligidan ajratilgan holda davolashga intilayotgan vrachlarning harakati tushunib bo'lmaydigan holatdir - deb ko'rsatgan edi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda insonni uni o'rab olgan borliq, bir butun koinot (makrokosmos) bilan birgalikda olib. uning ajralmas qismi (mikrokosmos) deb qarash, insonni koinotdagi mavjud axborotlami o'zida mujassamlashtiruvchi, ongingin esa gologramma modeli asosida tuzilganligini e'tirof etish maqsadga muvofiq.



Turmush tarzi deganda, jamiyatning inson bilan tabiiy hamda ijtimoiy muhit o'rtasida barqaror va uzoqni ko'zlab o'rnatilgan munosabatlar tizimidan iborat axloqiy va moddiy qadriyatlari tushuniladi.

Turmush tarzi quyidagi to'rtta toifani o 'z ichiga oladi:

- Iqtisodiy yoki yashash darajasi - farovon yashash toifasi bo'lib, uni miqdor jihatdan o'lchash mumkin. Bunga milliy daromad, iste'mol fondlari, aholining haqiqiy daromadlari va ulardan foydalanishi, uy-joy bilan ta'minlanish, tibbiy

xizmat ko'rsatish va savodxonlik darajasi, ish vaqtি va bo'sh vaqtning davomiyligi, daromadlari tarkibi va hokazolarni kiritish mumkin.

- Ijtimoiy yoki “yashash sifati” esa uy-joy, yashash sharoitlari va ovqatlanish, qulayliklarga egaligi, ishdan qoniqishi, muloqotda bo'lishi kabilarni baholash uchun qo'llaniladigan toifa hisoblanadi.

- Ijtimoiy-ruhiy tomoni “yashash uslubi” tarzida baholanib, u har bir shaxsning o'ziga xos xususiyatlari - fikrashi va tafakkur doirasi kabilarni qamrab oladi.

### Sog'lom turmush tarzini shakllantirish

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish deganda har bir shaxsni kundalik hayotda salomatlik uchun foydali bo'Igan odatlarga o'rgatish, zararli odatlardan tiyilishiga erishish, foydali va xavfsiz turmush kechirish uchun zarur bilimlar bilan ta'minlash, oxir-oqibatda shaxsning o'zlashtirgan bunday bilimlarini uning kundalik odatiga aylantirishga erishishni tushunmoq kerak. Har bir shaxs tomonidan sog'lom turmush tarzining turli xil elementlarini shoshilmasdan, bosqichma-bosqich o'zi kundalik hayotiga krita borishi, ularning sonini kun sayin oshirib borishi, turli-tuman va ko'p sonli sog'lom yashash odatlaridan o'zi uchun eng qulay, salomatligiga mos shakllarini tanlay bilishi - sog'lom turmush tarzini shakllantirishning asosini tashkil qiladi. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish keng qamrovli tushuncha bo'lganligi sababli so'z faqat jismoniy salomatlikni mustahkamlash va kasalliklarning oldini olish bilan chegaralanib qolmasdan, ayni paytda insonning shaxsiy sifatlarini oshirishga, o'z salomatligi uchun o'zi qayg'urishiga, irodasini ishga solishiga, salomatligini oliy qadriyat sifatida qadrlay olish hissini uyg'otishga ham qaratilishi lozim. Olimlar sog'lom turmush tarzi sohasida o'tkazgan tadqiqotlarni umumlashtirib, inson salomatligi va sog'lom turmush tarzini shakllantirishning tibbiy jihatlarini shaxsiy gigiyena, jamoa salomatligini muhofaza qilish, tashqi muhitni muhofaza qilish kabi uchta tizimga ajratadilar.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda motivatsiya omilining o'rni haqida

Motivatsiya atamasi o'z mazmuniga ko'ra shaxsni ma'lum bir faoliyat turini bajarishga kirishish uchun harakatga keltirish, shuningdek, uning muhimligini

asoslash va anglatishdan iboratdir. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda motivatsiya omili hal qiluvchi ahamiyatga ega masalalar qatorida bo'lib, odamlarga ularning nima uchun sog'lom turmush tarzida yashashlari lozimligini, nima sababdan nosog'lom turmush tarzini tanlashdan yuz o'girishi zarurligini anglatishga qaratilgan. Motivatsiya deganda, ma'lum bir ehtiyojlanii qondirish uchun individ har;ikatlanishining zamirida yotgan tub sabab tushuniladi. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish jarayonida motivatsiya omilini munosib baholay olmaslik, unga ahamiyatsiz masala sifatida qarash, bu borada qo'yiladigan talablarni chetlab o'tish kechirilmas xato hisoblanadi. Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha jamiyatda vujudga kelgan salbiy vaziyat motivatsiya omilini o'z o'mniga qo'yishni talab qiladi.

Dastlab sog'lom turmush tarzida yashovchilarda mavjud bo'Igan yuqoridagi uchta asosiyl elementning ijobiy va zaif tomonlarini tahlil qilamiz. Tahlil natijalariga ko'ra sog'lom turmush tarzida yashovchilarni quyidagi variantlarga ajratgan holda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq:

- sog'lom turmush tarzi haqida yetarli bilimga ega bo'Igan va bu yo'l uning sog'lagini mustahkamlashiga hamda umrini uzaytirishiga qat'iy ishonuvchi va bu yo'lida astoydil harakat qiluvchilar bo'lib, barcha yurtdoshlarimizni ham shunday turmush tarzida yashashga undashimiz lozim;
  - sog'lom turmush tarzi bo'yicha yetarli bilimga ega bo'Igan, ammo bu yo'lning ularni sog'lom qilishiga va umrlarini uzaytirishiga ishonmaydiganlar. Shunga qaramasdan bunday odamlar to'g'ri harakatda bo'ladilar. Ular mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lib, ilmnинг kuchiga ishonadi va uning talablarini puxta bajaradilar;
  - sog'lom turmush tarzi haqida bilimga ega bo'limganlar. Bunday odamlar odat tusiga kirib qolgan ayrim gigiyenik qoidalaming foydali ekanligini tushunib, unga amal qilib yashaydilar;
- sog'lom turmush tarzi bo'yicha na bilimga va na ishonchga ega bo'limganlar, biroq o'z odatlari ko'ra an'analar ta'sirida, taqlid qilish orqali o'zlarini gigiyenik to'g'ri tuta biladiganlar.

Gigiyenik jihatidan n o to 'g 'ri va nosog'lom turm ush tarzida yashovchilarni ham o'z navbatida yuqorida bayon etilgan tartibda guruhlarga bo'lib chiqish lozim:

- sog'lom turmush tarzi bo'yicha na bilim, na ishonchga ega bo'lмаганлар va shu sababli nosog'lom turmush tarzida yashab, vaziyatga ko'ra o'z xohishi bilan yashovchilar;

- nosog'lom turmush tarzida yashashning aqldan emasligini bilganlar va bunga to'la ishonch hosil qiluvchilar. Biroq, shunga qaramasdan nosog'lom turmush tarzida yashashni davom ettiruvchilar. Ularning xulqlari bilim va ishonchlaridan, ichki ehtiyojlaridan ustun keladi. Bu haqiqiy hayotda odamlarning xulqi hamma vaqt ham ularning ichki ehtiyojlari ta'sirida shakllanavermasdan, tashqi shart-sharoitlar va vaziyatlarga ham bog'liq ekanligini ko'rsatadi;

Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda motivatsiya omilini qo'llashning ayrim texnik va texnologik masalalari

Sog'lom turmush tarzini shakllantirishning ayrim texnologik muammolariga to'xtalib, shu narsani alohida qayd etish lozimki. ilm-tanda ham. ijtimoiy hayotda ham. shu jumladan. sog'lom turmush tarzini shakllantirish jarayonlarida ham mavjud muammolarning yechimini topishda ilmiy asoslangan axborotlar oqimiga tayanmasdan bo'imavdi. M a'lumki har qanday axborot axborotlar texnologiyasi asosida yaratiladi.

Mavjud vaziyatda bunday axborotlarning manbalari nimalardan iborat bo'lishi kerak? Shuni ta'kidlash joizki, har qanday axborotga ma'lum talablar qo'yiladi. Bu talablar qatoriga:

- axborotning zamonaviyligi va ilm-fanning eng so'nggi vutuqlariga asoslanganligi; axborotning haqqoniyligi va ishonarli bo'lishi. to'laqonliligi, joylardagi vaziyatni o'zida to'liq aks ettirishi;

- iste'mol qiluvchilarga ularning uzlusiz kelib turishi:

har bir tashkilotda, muassasada, boshqaruva organida axborotlar bilan ishlovchi axborot-tahlil guruhlarining bo'lishi va ularning malakali mutaxassislar bilan ta'minlanishi;

- axborot-tahlil guruuhlarining zamonaviy kompyuter, nusxa ko'chirish va boshqa texnik vositalarga ega bo'lishi;
- axborot iste'molchi uchun qulay holda bo'lishi va qat'iy algoritmlarga asoslanib tayyorlanishi lozim. Algoritmlami tuzishda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qo'yiladigan talablardan kelib chiqish lozim. Yuqorida axborotlarning manbalari haqidagi savolga qavtib. bunday axborotlar:

- tashqi ekologik muhit. uning omillari haqidagi ma'lumotlardan iborat bo'lishi;
- xususiy statistik va sotsiologik tadqiqotlardan olinishi;

